YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 24-fevral, № 7 (8025)

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA HISSA QO‘SHISH – YARATGANNING O‘ZI BIZGA BERGAN TARIXIY IMKONIYATDIR.

Shavkat MIRZIYOYEV

TOSHKENT VILOYATI – BOSHQIRDISTON RESPUBLIKASI: O‘ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN HAMKORLIK



Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev boshchiligidagi delegatsiya xizmat safari bilan Rossiya Federatsiyasining Boshqirdiston Respublikasida bo‘ldi. Tashrif dasturi ikki hudud o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ilm-fan va investitsiya aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo‘lib, unda aniq loyihalar va amaliy hamkorlik masalalariga ustuvor ahamiyat berildi.

Delegatsiya a’zolari dastlab Boshqirdistonning ilm-fan va sog‘liqni saqlash sohalarida yetakchi muassasalaridan biri – “Asalarichilik va apiterapiya bo‘yicha Boshqird ilmiy-tadqiqot markazi” faoliyati bilan tanishishdi. Delegatsiya a’zolariga Boshqird asalari populyatsiyasi genofondini saqlash va tiklash, ixtisoslashgan seleksiya liniyalarini yaratish, asal hamda boshqa asalarichilik mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar taqdim etildi. Tomonlar kelgusida ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish va mutaxassislar o‘rtasida tajriba almashishni tizimli yo‘lga qo‘yish masalalarini muhokama qildilar.

Shuningdek, tashrif davomida sanoat kooperatsiyasi yo‘nalishiga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Sterlitamak shahrida joylashgan “Tolpar” texnoparki faoliyati bilan tanishuv ikki mamlakat hududlari o‘rtasida sanoat aloqalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu yerda metall konstruksiyalar, qurilish materiallari, qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishildi. Toshkent viloyati tadbirkorlarini texnopark imkoniyatlaridan foydalangan holda qo‘shma loyihalarga jalb etish, yangi investisiyaviy tashabbuslarni amalga oshirish masalalari yuzasidan aniq takliflar bildirildi.

Shuningdek, “ElKom” MCHJ hamda “Potok-Trubnaya kompaniya” korxonalarida bo‘lib, elektrotexnika va polimer quvurlar ishlab chiqarishdagi zamonaviy texnologiyalar o‘rganildi. Bu korxonalar misolida sanoat kooperatsiyasi nafaqat tayyor mahsulotlar savdosi, balki texnologiya, muhandislik yechimlari va tajriba almashinuvi shaklida ham rivojlanishi mumkinligi alohida ta’kidlandi. Uchrashuvlarda yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, mahsulotlar eksport geografiyasini kengaytirish va mutaxassislar malakasini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Navbatdagi muloqot Ufa shahridagi “Respublika uyi”da bo‘lib o‘tdi. Marosimda har ikki tomondan rasmiylar, tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy doira vakillari, shuningdek, yirik kompaniyalar va sanoat korxonalari, savdo vakolatxonalari rahbarlari ishtirok etishdi.

Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev hamda Boshqirdiston Respublikasi rahbari Radiy Xabirov ikki hudud o‘rtasidagi ko‘p yillik hamkorlik aloqalari, amalga oshirilayotgan qo‘shma loyihalar hamda istiqboldagi rejalarni yuqori baholadilar.

Erkin va samimiy ruhda o‘tgan muloqot chog‘ida bir qator qo‘shma loyihalar qizg‘in muhokama qilindi va ularni o‘z vaqtida amalga oshirish yo‘llari belgilandi.

Xususan, Bekobod tumanida o‘zbek-boshqird texnoparkini tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Uning qurilishini shu yil bahorda boshlash rejalangan bo‘lib, ayni vaqtda dastlabki qadamlar tashlangan.

Muloqotda O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi Botirjon Asadov ham ishtirok etdi.

Umuman olganda, Toshkent viloyati delegatsiyasining Boshqirdistonga tashrifi mazmunan boy, aniq iqtisodiy va sanoat loyihalariga yo‘naltirilgan, ilm-fan va investitsiya sohalarini qamrab olgan kompleks hamkorlik ruhida o‘tdi. Uchrashuv va muzokaralar ikki hudud o‘rtasidagi sheriklikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, mavjud salohiyatni real natijalarga aylantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

Xalqaro minbar

G‘AZO BO‘YICHA USTUVOR YO‘NALISHLAR BELGILANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-fevral kuni Vashington shahrida Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etdi.

AQSh Prezidenti Donald Tramp raisligida o‘tkazilgan tadbirda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Bahrayn, Indoneziya, Argentina, Paragvay, Ruminiya, Misr, Qatar, Pokiston, Vengriya, Albaniya, Armaniston, Vyetnam, Kambodja, BAA, Turkiya, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Isroil, Marokash va boshqa davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ham qatnashdi.

G‘azo sektorini qayta tiklash va gumanitar yordam ko‘rsatish, shuningdek, mintaqada tinchlik hamda barqarorlikni ta’minlash masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida dastlabki sammitni chaqirgani uchun Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti, Tinchlik kengashi raisi Donald Trampga minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston Tinchlik kengashini tuzish bo‘yicha tinchliksevar tashabbusni qo‘llab-quvvatlagani va uni muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishda amaliy ishtirok etishini qat’iy tasdiqlagani ta’kidlandi.



– Ishonchim komil, kengash ishi G‘azo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

G‘azoning har qanday tashqi boshqaruv mexanizmi sektor aholisining so‘zsiz ichki qo‘llab-quvvatlashiga tayanishi lozimligi ta’kidlandi.

Barcha tomonlarning muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlari G‘azoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, mojarodan keyingi jarayonlarni barqarorlashtirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston ushbu hududda turar joylar, bolalar bog‘chalari, maktab va kasalxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qo‘shishga tayyorligini qayd etdi.

– Bizning uchrashuvimiz xalqaro birdamlik, tinchliksevarlik va Yaqin Sharqdagi vaziyatni yaxshilashga bo‘lgan umumiy intilishimizning yorqin ifodasidir. Biz Yangi G‘azoni – iqtisodiyoti farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo‘lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirda boshqa xorijiy mamlakatlarning davlat, hukumat va tashqi siyosiy idoralari rahbarlari ham so‘zga chiqdilar.

Yig‘ilish yakunida Tinchlik kengashi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi.

Manba: prezident.uz

“BIRDAMLIK” MAHALLASI — TOTUVLIKNING NAMUNASI

MAHALLA HAYOTIDAN

Bekobod tumanida O‘zbekiston – Tojikiston davlat chegarasiga tutash hududda joylashgan “Birdamlik” mahallasi bugungi kunda millatlararo ahillik va hamjihatlikning yorqin namunasi sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur mahallada tojik millatiga mansub bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari 78 dan ortiq xonadonda ko‘p yillardan beri tinch va osoyishta hayot kechirib keladi. Ushbu hududga yaqin joylarda esa 300 dan ortiq o‘zbek millati vakillari istiqomat qiladi. Chegara oldi hududida joylashganiga qaramasdan, mahallada doim do‘stona muhit, o‘zaro hurmat va ishonch qaror topgan.

Mahalla aholisining o‘zaro munosabatlari shunchalik mustahkamki, ular jamoat ishlarida ham bir yoqadan bosh chiqarib harakat qiladi. Ayniqsa, “Open budjet” loyihasi doirasida ovoz yig‘ish jarayonlarida barcha aholi faol ishtirok etdi. Natijada mahallaning ichki ko‘chalari to‘liq obodonlashtirilib, asfalt yotqizilmagan ko‘cha qolmadi.

Shuningdek, mahallada tojik tilida ta’lim beruvchi maktabning barpo etilgani ham ikki do‘st millat o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikning amaliy ifodasidir. Ushbu ta’lim muassasasi yosh avlodni tinchlik, do‘stlik va qardoshlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

E’tiborli jihati shundaki, mahalladagi o‘zbek va tojik millat vakillari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarda, balki ma’naviy hayotda ham birdam. To‘y va marosimlar, quvonchli va tashvishli kunlar hamisha birgalikda o‘tkaziladi. Bu esa xalqlar o‘rtasidagi ko‘p yillik qardoshlik va do‘stlik munosabatlarining yanada mustahkam ekanini ko‘rsatadi.

Bejizga ushbu mahallaga “Birdamlik” deb nom berilmagan. Chegara oldi hududida joylashgan mazkur mahalla o‘z nomi bilan o‘z mazmunini to‘laqonli tasdiqlab, mamlakatimizda olib borilayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik siyosati hayotda qanday amalga oshirilayotganining yorqin namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ismoil BABAYEV,
Bekobod tumani Yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i

UCH AVLOD UCHRASHUVI

TAJRIBA, TARBIYA VA MAS’ULIYAT UYG‘UNLIGI

“Uch avlod uchrashuvi” tadbirlari yaxshi an’anaga aylanib bormoqda. Bunday uchrashuvlar davomida turli soha vakillari — faxriylar, mutaxassislar va yosh avlod vakillari yuzlashib, tajriba almashmoqda. Faxriylar o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, yoshlarga maslahat va yo‘l-yo‘riqlar bermoqda, kasb egalari esa o‘z malakasini oshirmoqda. Tadbirga taklif etilgan yoshlar uchun o‘ziga xos motivatsion muhit shakllanmoqda.

Bu gal Bekobod tumani Ichki ishlar bo‘limida o‘tkazilgan tadbirning ham asosiy maqsadi shu bo‘ldi.



Uchrashuvga tashrif buyurgan “Nuroniy” jamg‘armasi Bekobod tuman bo‘limi raisi J.Bo‘rixo‘jayev Ichki ishlar bo‘limi xodimlari bilan o‘z tajribalarini o‘rtoqlashdi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasining mazmun-mohiyati haqida tushuntirish berdi.

Uchrashuv davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1-son qaroriga muvofiq jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlari yuzasidan suhbatlar o‘tkazildi. Tadbir tashabbuskori — tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i S.Ergashxo‘jayev uch avlod vakillarining samimiy muloqoti yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish va ularning hayotga mas’uliyatli munosabatini mustahkamlashga xizmat qilishini alohida ta’kidladi.

Akrom MAMADALIYEV



Deputatlik so‘rovi

ARIQLAR TOZALANIB, SUV TA’MINOTI YAXSHILANMOQDA

Deputatlik so‘rovlari aholi murojaatlari asosida hududlardagi mavjud muammolarni bartaraf etish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Jumladan, deputatlik so‘roviga asosan Bekobod tumani “Achamayli” MFY tomorqalariga Do‘stlik kanalidan oqib kiruvchi ariqlarning kadastrga ega maydonlarida maxsus texnika yordamida tozalash ishlari amalga oshirildi.

Mazkur tozalash ishlari suv resurslaridan samarali foydalanish va irrigatsiya tizimlari barqarorligini ta’minlash, xususan, suv o‘tkazuvchanlikni yaxshilash hamda suvning ekin maydonlariga o‘z vaqtida yetib borishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ariq bo‘ylarida joylashgan klaster va fermer xo‘jaliklari hududlarida suvdan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish, me’yoriy suv hisoblagichlarini o‘rnatish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Suv xo‘jaligi tizimida amalga oshirilayotgan bunday ishlar qishloq xo‘jaligining rivoji hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Suv – hayot manbai bo‘lib, undan oqilona foydalanish har birimizning muhim vazifamizdir.

Inom EGAMBERDIYEV,
Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi deputati

El ardog‘idagi onaxon

SINOVLARDA TOBLANGAN SAN’AT FIDOYISI

Hayot ba’zan insonni eng og‘ir sinovlar bilan yuzlashtiradi. Ammo chinakam matonat egasi ana shu sinovlarni yengib, qalbidagi nur va mehrni so‘ndirmay yashay olgan insondir. “Nilufar” folklor maktabi a’zosi, 81 yoshni qarshi olgan Rohatoy opa Mamatqulova ham ana shunday sabr va matonat timsolidir.

Ular hayot davomida yetti nafar farzandidan ayrilishdek og‘ir judolikni boshdan kechirgan. Bu dardni so‘z bilan ifodalash mushkul. Biroq Rohatoy opa qalbidagi iztirobni san’atga, xalqona raqs va an’analarga bo‘lgan cheksiz mehriga yo‘g‘irib, o‘zini ham, boshqalarni ham ruhlantirib yashashni tanlagan. Uning sahnadagi har bir chiqishi — sabr, shukr va hayotga muhabbat madhiyasidir.

Bolalikdan milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan san’atkor bugun samovar to‘la choy bilan raqsga tushish kabi noyob ijrolari orqali tomoshabinlarga quvonch ulashib kelmoqda. Bu chiqishlar shunchaki tomosha emas, balki nomoddiy madaniy merosimizning jonli ko‘rinishidir.



Ayni paytda Rohatoy opa “Nilufar” folklor maktabida yosh avlodga saboq berib, milliy san’at an’analarini davom ettirmoqda. U oddiy bir inson emas, balki butun bir davrning guvohi, folklor maktabining tirik xotirasi, duoli so‘zi va samimiy kulgusi bilan ko‘ngillarga nur ulashib kelayotgan tabarruk onaxonimizdir. Rohatoy opani jamoamizning onasi deb aytsak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. U kishi kirib kelgan joyda samimiyat hukm suradi, samovar qaynagandek suhbatlar qiziydi, ko‘ngillar iliqlik bilan to‘ladi. Ular bizga nafaqat milliy madaniyatimizni, balki insoniylikni, kattaga hurmat, kichikka izzatni ham o‘rgatgan. Ularning hayot yo‘li — mehnat, sadoqat va elga xizmatning yorqin namunasidir.

Kuni kecha onaxonimiz tavallud ayyomi munosabati bilan tantanali konsert tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda onaxonimizning ibratli hayot yo‘li va madaniyatimiz rivojiga qo‘shgan munosib hissasi e’tirof etilib, nuroniylar, jamoatchilik vakillari va yaqinlari ishtirokida samimiy tabriklar hamda madaniy dastur namoyish etildi. Ushbu ayyom munosabati bilan hamda milliy madaniyatimiz rivoji yo‘lidagi fidokorona mehnatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2026-yil 9-fevraldagi qaroriga muvofiq Rohatoy opa Mamatqulova “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Bu e’tirof nafaqat uning san’atdagi xizmatlari, balki insoniy sabr-toqati va matonatiga ham berilgan yuksak bahodir. Chunki haqiqiy san’at — qalbning og‘rig‘ini ham, quvonchini ham xalq bilan baham ko‘ra olishdir.

Bekobod tumani “Nilufar” folklor maktabi jamoasi ustozni qutlug‘ tavallud ayyomi hamda yutuqlari bilan samimiy muborakbod etadi.

Mohinur XUDAYNAZAROVA,
“Nilufar” folklor maktabi direktori

TABRIKNOMA

Bugun ajib ayyom, unutilmas kun,
Quvonchga to‘lgan xush tilaklar oni.
Ko‘ngil izhorimni yo‘llay siz uchun,
Fayzli davramizning ulug‘ mehmoni.

Xalqning xizmatida kamsuqum inson,
Bugun dildan toshar xush so‘z, tilaklar.
“Nilufar” momosi hurmatda har on,
Siz uchun atalgan barcha tilaklar.



Go‘zal chehrangizdan taraladi nur,
Iymoni chiroyli, tilida shukur.
Tug‘ilgan kuningiz bo‘lsin muborak,
Shukurga boy bo‘ling va toping huzur.

Boshda toj misoli samovaringiz,
Otameros ekan iqtidoringiz.
Yurtboshim nazari tushgan, onajon,
Barcha olqishlagay mahoratingiz.

Doim panohida asrasin Rahmon,
Yuz bilan yuzlashib yuring sog‘-omon.
Qancha dilda havas, jonimiz payvast,
Baxt bilan dillashib yashang, onajon.

Sakson bir yoshingiz muborak bo‘lsin!

Muyassar ARZIMATOVA,
“Nilufar” folklor jamoasi rahbari

E’lon

O‘zMU Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi tomonidan 22.09.2023-yilda berilgan Mamatqulov Azizbek Utkir o‘g‘liga tegishli B-0029709 sonli zaxiradagi leytenant guvohnomasi yo‘qolganligi **sababli haqiqiy emas deb topilsin.**

2025-yil 11-avgustda Bekobod tumani Mudofaa bo‘limi tomonidan berilgan Fayzullayev Raximjon Saydullo o‘g‘liga tegishli 28 raqamli Chaqiruv uchastkasida qayd etish guvohnomasi yo‘qolganligi **sababli haqiqiy emas deb topilsin.**

HUKM

ALDANGAN ISHONCH VA NOMUS



Hayotda har bir qaror inson taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlikdagi shoshqaloqlik va ortiqcha ishonch ba’zan og‘ir sinovlarga sabab bo‘lishi mumkin. Quyidagi voqea ham buni yana bir bor tasdiqlaydi.

Ma’lum bo‘lishicha, talaba qiz N.F. oilali yigit R.A. bilan munosabatda bo‘lgan. Yigit uni moddiy qo‘llab-quvvatlab, ishonchiga kirgan va qiz uchun tanishidan foiz evaziga pul olib bergan. Qiz qarzini muntazam to‘lab borganiga qaramay, yigit garovga qo‘yilgan qizning uyini uning nomiga qaytarishni paysalga solgan va shu sababli ular o‘rtasida kelishmovchiliklar paydo bo‘lgan. Mojaro davomida yigit alamzada bo‘lib, qizning telefoniga o‘ziga bildirmay ulanib, uning behayo rasmlarini ijtimoiy tarmoqqa joylab yuborgan. Qiz bu holatdan xabar topganidan so‘ng ruhiy jihatdan cho‘kib, hatto o‘z joniga qasd qilgan. Biroq...

Shifokorlar ko‘magida uning hayoti saqlab qolinadi. Tabiiyki, bu voqea huquqni muhofaza qiluvchi organlar nazaridan chetda qolmaydi. Prokuratura ishni ko‘rib chiqib, tergovni boshlab yuborgach, yigitning “paytavasiga qurt tushib” qoladi va qizga nisbatan turli tuhmatlar uyushtiradi. Natijada fuqaro N.F.ga ham tergov ishi ochiladi. Ammo mazlumning duosi Xudoga yetadi, deganlaridek, haqiqat yuzaga chiqadi va tergov davomida qizning aldanib qolgani o‘z tasdig‘ini topadi. Jinoyat Kodeksining 168-moddasiga asosan olib borilgan tergov harakatlarida qiz oqlanib, uning uyi o‘ziga qaytariladi.

Sud O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 103-moddasi 2-bandi bilan R.A.ni aybdor deb topib, 7 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlaydi.

Voqea 2021-yilda sodir bo‘lgan. Yigit hozirda jazoni o‘tab, ozodlikka chiqib ham ulgurdi. Ammo singan ishonch, sharmanda bo‘lgan nomus hali-beri unutilmasa kerak. Bu holat yoshlar uchun ogohlikdir. Noto‘g‘ri tanlov og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Har bir inson o‘z sha’ni, xavfsizligi va kelajagini asrashni unutmasligi lozim.

Bunyod TURSUNALIYEV,
Bekobod tumani prokurorining yordamchisi

Favqulodda vaziyatlardan xoli mahalla oyligi

Yong‘in xavfsizligi jamiyat hayoti va inson salomatligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Yong‘inlar nafaqat moddiy boyliklarga, balki inson hayoti va atrof-muhitga ham jiddiy zarar yetkazadi. Aksariyat hollarda yong‘inlar insonlarning beparvoligi, ehtiyotsizligi hamda xavfsizlik qoidalariga amal qilmasligi oqibatida yuzaga keladi. Shu bois yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilish har bir fuqaroning muhim burchidir.

YONG‘IN XAVFSIZLIGI — BARCHAMIZNING MAS’ULIYATIMIZ



Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalari, ofislar, savdo markazlari, ta’lim muassasalari hamda turar joylarda yong‘in chiqish xavfi mavjud. Elektr simlarining eskirishi, texnik vositalarning ortiqcha yuklanishi, gaz jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanish, yonuvchan va portlovchi moddalarni belgilangan qoidalarga zid ravishda saqlash yong‘in kelib chiqishining asosiy sabablaridandir. Shuningdek, chekish madaniyatiga rioya qilmaslik ham ko‘plab ko‘ngilsiz hodisalarga olib kelmoqda.

Yong‘inlarning oldini olish maqsadida Bekobod tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tomonidan hududlarda muntazam profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tuman hududida joylashgan davlat tasarrufidagi 67 ta obyekt yong‘in xavfsizligi yo‘nalishi bo‘yicha o‘rganib chiqildi. Shuningdek, umumiy aholi turar joylari bo‘yicha 1078 ta xonadonda nazorat va tushuntirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari, 37 ta mahallada hamda 58 ta korxona va tashkilotda yong‘in xavfsizligi qoidalariga bag‘ishlangan uchrashuvlar tashkil etildi.

O‘tkazilgan tadbirlarda fuqarolarga yong‘inlarning kelib chiqish sabablari, ularning oldini olish choralari, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish tartibi haqida atroflicha ma’lumotlar berildi. Mutaxassislar tomonidan birlamchi o‘t o‘chirish vositalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar ham berildi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yong‘inning oldini olish uni bartaraf etishdan ko‘ra osonroq va samaraliroqdir. Har bir fuqaro o‘z yashash va ish joyida yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilsa, ko‘plab ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olish mumkin. Zero, xavfsizlik — umumiy mas’uliyatdir.

Abdulaziz ABDUGAPPAROV,
Bekobod tuman FVB kichik inspektori, oddiy askar,
Bahriddin ACHILOV,
“UKZ” OFVB inspektori, 1-serjant

Mutaxassis fikri

SOVUQ SHAROITDA ISSIQXONA SABZAVOTCHILIGI



Issiqxona sabzavotchiligi qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, xalqimizni yilning barcha fasllarida sarxil, servitamin oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Issiqxonalarda sabzavot ekinlaridan yuqori hosil olish uchun qimmat urug‘larni ekish va mineral o‘g‘itlarni ko‘p qo‘llashning o‘zi yetarli emas. Bunda barcha agrotexnik chora-tadbirlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajarilishi yuqori va sifatli hosilning garovidir.

Sabzavot ekinlarining yaxshi o‘sib-rivojlanishi hamda hosildorligi yuqori bo‘lishi uchun issiqxonada maqbul mikroiqlim (harorat, yorug‘lik, havo va tuproq namligi) ta’minlanishi zarur. Masalan, pomidor uchun harorat kunduzi 22–25 °C, kechasi 17–18 °C, havoning nisbiy namligi 75–80 %, bodring uchun esa mos ravishda kunduzi 24–28 °C, kechasi 18–20 °C, havo namligi 85–90 % bo‘lishi maqbul hisoblanadi.

Haroratning yuqoridagi ko‘rsatkichlardan oshib yoki pasayib ketishi ekinlarning o‘sib-rivojlanishiga, shuningdek, kasallik va zararkunandalarga chidamliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatning oldini olish maqsadida pomidor gullariga maxsus preparatlar eritmalari bilan ishlov berish tavsiya etiladi. Kuzgi-qishki mavsumda issiqxonadagi pomidor ko‘chatlarining o‘suv nuqtasi 7–8 ta gulshodadan keyin chilpib tashlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu hosildorlikning ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Oziqa moddalarini qo‘llash tuproq tarkibining agrokimyoviy tahlili natijalariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Jumladan, tuproq tarkibidagi suvda eruvchi fosfor miqdori har 100 g tuproqda 84–103 mg, nitratli va ammiakli azot miqdori 25–30 mg, suvda eruvchi kaliy 30–40 mg/100 g atrofida bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, tuproq tarkibidagi xlor miqdori har 100 g tuproqda 0,02 foizdan oshmasligi, magniy 7–10 mg/100 g, kalsiy esa kamida 30–45 mg bo‘lishi zarur.

Barcha issiqxona ekinlarini kasalliklar, zararkunandalar hamda begona o‘tlardan o‘z vaqtida himoya qilish lozim. Issiqxonalarda yuqoridagi tavsiyalarga amal qilinsa, ekinlardan mo‘l va sifatli hosil yetishtirilib, xalqimiz dasturxoniga qishki mavsumda ham sarxil sabzavotlar tortiq etish imkoniyati yanada ortadi.

Ahroriddin MALIKOV,
Ulug‘bek MAMATQULOV,
Fahriddin SHAKIROV,
Saidahror AHMADJONOV,
“Oybek” O‘KCHM inspektorlari

BOLALARDA GIJJA: OGOHLIK VA PROFILAKTIKA MUHIM

Tibbiy maslahat

Bolalar organizmi turli infeksiyalarga, jumladan ichak parazitlari — gijjalarga nisbatan sezgir bo‘ladi. Gijja (gelmint) tuxumlari ko‘zga ko‘rinmaydi, biroq ular tuproq, suv, oziq-ovqat va iflos qo‘llar orqali tez tarqaladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu muammo ko‘p uchraydi. Shu sababli ota-onalar va ta’lim muassasalari tomonidan profilaktika choralariga qat’iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Gijja bolalarga asosan yuvilmagan meva va sabzavotlar, iflos qo‘llar, qum maydonchalarida o‘ynash, to‘liq pishirilmagan go‘sht mahsulotlari hamda uy hayvonlari bilan gigiyena qoidalariga rioya qilmasdan muloqot qilish orqali yuqadi. Ko‘pincha bolalar qo‘l yuvishni unutishi yoki tirnoqlarini tishlashi natijasida gijja tuxumlari organizmga tushadi. Bu esa sog‘liq bilan bog‘liq qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Gijja bilan zararlangan bolada qorin og‘rig‘i, ishtaha buzilishi, ozish yoki vazn qo‘shmaslik, tez charchash, kechasi bezovtalik va qichishish, ba’zan esa allergik toshmalar kuzatiladi. Shunday belgilar paydo bo‘lsa, o‘zboshimchalik bilan dori berish emas, balki shifokorga murojaat qilish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Har qanday davolash mutaxassis tavsiyasiga binoan amalga oshirilishi lozim.

Kasallikning oldini olish oddiy, ammo muntazam bajariladigan qoidalarga bog‘liq. Avvalo, shaxsiy gigiyenaga e’tibor qaratish zarur: qo‘lni ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin sovunlab yuvish, tirnoqlarni qisqa va toza saqlash, bolaga qo‘lni og‘izga solmaslikni o‘rgatish muhimdir. Shuningdek, meva-sabzavotlarni yaxshilab yuvish, go‘sht va baliqni to‘liq pishirish, qaynatilmagan suv ichmaslik kabi choralar ham katta ahamiyatga ega. Uy hayvonlarini muntazam veterinariya ko‘rigidan o‘tkazish, bola hayvon bilan o‘ynagach qo‘lini yuvishini nazorat qilish, maktab va bog‘chalarda sanitariya qoidalariga rioya etish ham kasallik tarqalishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar salomatligi — har bir oila va jamiyatning eng katta boyligidir. Oddiy gigiyena qoidalariga amal qilish va tibbiy nazoratni kuchaytirish orqali gijjaning oldini olish mumkin. Ogohlik va mas’uliyat esa sog‘lom avlodni tarbiyalashning muhim omilidir.

Temur UMAROV,
Bekobod tuman Sanepid bo‘limi boshlig‘i

Pedagog minbari

SARHISOB: EDEX SCHOOLDA YUTUQLAR VA YANGILANISHLAR

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanib bormoqda. Zamonaviy dunyoda raqobatbardosh, keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalash har bir ta’lim muassasasining ustuvor vazifasidir. Shu nuqtai nazardan, EdEx School ta’lim klasterida olib borilayotgan islohotlar, ta’lim sifati va tarbiya masalalari doimo diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Joriy o‘quv yilining birinchi yarim yilligi maktab hayotida sermazmun va samarali voqealarga boy bo‘ldi. Bu davr davomida pedagoglar jamoasi, o‘quvchilar hamda ota-onalar yagona maqsad yo‘lida hamjihatlik bilan faoliyat olib bordilar. Ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi. Dars mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etildi. Interfaol metodlar, guruhlar bilan ishlash, loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalarining keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning darsga qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Har bir o‘quvchining individual qobiliyat va salohiyati inobatga olinib, nazorat ishlari hamda monitoring natijalari asosida tahliliy ishlar olib borildi.

Maktabda o‘ziga xos, ilhomlantiruvchi va samimiy muhit yaratish maqsadida “Houses” tizimi joriy etildi. Mazkur tizim o‘quvchilarda jamoaviylik, o‘zaro hurmat va sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O‘quvchilar o‘zlarini xuddi Harry Potter asarlaridagi sehrli maktab muhitidagidek his etib, bir jamoa sifatida umumiy yutuqlar sari intilmoqdalar. Bu esa ularda mas’uliyat, hamjihatlik va g‘alabaga ishonch tuyg‘ularini mustahkamladi.

O‘tgan yarim yillik davomida pedagoglarimiz ham o‘z ustida tinimsiz ishladilar. Malaka oshirish kurslarida ishtirok etish, ochiq darslar, seminar va tajriba almashuvlar orqali o‘qituvchilarning kasbiy mahorati boyidi. Natijada dars jarayonlari yanada sifatli va samarali tashkil etildi.

O‘quvchilarimiz fan olimpiadalari, ijodiy tanlovlar va sport musobaqalarida faol qatnashib, munosib natijalarga erishdilar. Maktabda sport yo‘nalishiga ham alohida e’tibor qaratilib, shaxmat va taekvondo to‘garaklari yo‘lga qo‘yildi. Bu mashg‘ulotlar nafaqat jismoniy chiniqish, balki intizom va iroda tarbiyasiga ham xizmat qilmoqda.

Tarbiya masalalari yarim yillik faoliyatning ajralmas qismi bo‘ldi. Vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar tizimli ravishda o‘tkazildi. O‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida esa ikki haftada kamida bitta kitob mutolaa qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi va bu jarayon individual suhbatlar orqali nazorat qilib borildi.

Maktab va oila hamkorligini mustahkamlashga ham alohida e’tibor berildi. Ota-onalar bilan muntazam yig‘ilishlar, individual suhbatlar va “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari o‘tkazildi. Onalar uchun psixolog ishtirokida “Volidam” klubi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, o‘smir yoshidagi farzandlarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilib borilmoqda. Shuningdek, otalar uchun ham maxsus uchrashuvlar tashkil etilib, farzand tarbiyasidagi mas’uliyat va samarali muloqot ko‘nikmalariga urg‘u berildi.

Yarim yillik sarhisob shuni ko‘rsatadiki, EdEx School ta’lim klasteri belgilangan vazifalarni izchil va samarali amalga oshirdi. Qo‘lga kiritilgan natijalar maktab jamoasining fidoyiligi va hamjihatligining yorqin ifodasidir. Oldinda esa yangi marralar, yanada yuksak maqsadlar turibdi. EdEx Schoolning bosh maqsadi — nafaqat bilimli va raqobatbardosh yoshlarni tayyorlash, balki mustahkam qadriyatlarga ega, ongli va barkamol insonlarni voyaga yetkazishdir.

Yulduz NORMURODOVA,
EdEx school xususiy maktabi psixologi



VATANPARVAR AVLOD — USTUVOR VAZIFA

Yurt kelajagi – yoshlar qo‘lida. Ularni Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va yuksak mas’uliyat ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Ana shu ezgu maqsad yo‘lida Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabida ma’naviy-ma’rifiy uchrashuv tashkil etildi. Unda Havo hujumlaridan Mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari tasarrufidagi 08366-harbiy qism komandirlari ishtirok etdi.

Tadbirda maktab rahbariyati, pedagoglar hamda o‘quvchilar qatnashib, harbiy soha vakillari bilan ochiq muloqot qilish imkoniga ega bo‘ldilar. Uchrashuv davomida mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, harbiy xizmatning zamonaviy talablari va shart-sharoitlari haqida batafsil ma’lumot berildi. Harbiy xizmatchilar o‘z nutqlarida Vatan himoyasi har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanini alohida ta’kidladi. Ular xizmat faoliyatidan misollar keltirib, intizom, jasorat, sadoqat va fidoyilik harbiy hayotning ajralmas qismi ekanini qayd etdilar. Ayniqsa, yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxs etib tarbiyalash masalasi bugungi globallashuv davrida yanada dolzarb ekani ta’kidlandi.

Uchrashuv savol-javoblarga boy tarzda o‘tdi. O‘quvchilar harbiy oliy ta’lim muassasalariga kirish tartibi, xizmat davomida yaratilgan imkoniyatlar, harbiy kasbning afzalliklari hamda mas’uliyatli jihatlari yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan savollarni berdilar. Komandirlar tomonidan berilgan javoblar yoshlar ongida harbiy kasbga nisbatan ijobiy tasavvurni yanada mustahkamladi.

Tadbir yakunida maktab rahbariyati tomonidan harbiy xizmatchilarga minnatdorlik bildirildi. Bunday uchrashuvlar yoshlarning qalbida Vatanga muhabbat va daxldorlik hissini kuchaytirishi, ularni mustaqil hayotga hamda yurt himoyasiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Shubhasiz, ana shunday ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yosh avlodning dunyoqarashini boyitadi, ularda milliy g‘urur va mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlaydi. Zero, Vatan ravnaqi – uning farzandlari qo‘lida.

Sanjar SULTONOV,
Bekobod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Maktab hayotidan

MEHR BILAN QURITILGAN TURSHAK

Sanatoriyaga odamlar turlicha niyat bilan boradi: kimdir sog‘liqni tiklash, kimdir dam olish uchun. Ammo kamdan kam odamlar o‘zidan nur qoldirib ketadi. Bizning ustozimiz, Muhayyo opa, aynan shunday insonlardan. Ular ham dastlab oddiy dam olish niyatida sanatoriyaga bordilar. Avvaliga hamma narsaga begonalik bilan qaradi: xona jim, ko‘ngil xijil. Ammo yuragi toza odamga tabiatning o‘zi yo‘l ochadi. Ertasi kuni bir chaqiriqqa ergashib, toza havoga chiqib yurishni boshladilar. Sanatoriyaning qarshisida bir bog‘ bor edi. O‘riklar pishiq, atrof xushmanzara. Muhayyo opa bog‘dan o‘tarkan, bog‘bon shunday dedi: — Bu yerga keling, o‘rik olib keting, xohlasangiz ham, xohlamasangiz ham bu o‘rik sizniki.

Bu so‘zlar shunchaki mehmondo‘stlik emas, insoniy iliqlik, mehr edi. Muhayyo opa biroz to‘xtadilar va yordam qo‘lini uzatdilar. Bog‘bonning ayoli ochiq yuzli, kirishimli, qizi esa turshak tayyorlayotgan edi. Muhayyo opa ehtiyotkorlik bilan o‘riklarni joylashtirdilar, qo‘lida turshak, ko‘zlarida esa bolalik xotiralari jilvalandi. Shu bog‘da kunlar tez va samimiy o‘tdi. Ustozimiz ketar chog‘ida qizidan bog‘bonning telefon raqamini so‘radi hamda kamtarona va sokin xayrlashdi. Bog‘bonning ayoli Muhayyo opa uchun turshaklarni yoyib quritardi. O‘sha sodda, samimiy va hayot hidini saqlab qolgan bog‘ va uning odamlari haqida ustozimiz gazetaga maqola tayyorlash niyatida edi, ammo e’tibor yoki minnat kutmadilar. Muhayyo opa qishloqdan qaytar ekan, ko‘zlarida jim-jim so‘zlar bilan maqolani bog‘bon boboga jo‘natdilar. Bog‘bon telefon orqali maqolani o‘qib hayratlanib, quvonchi ichiga sig‘may qoldi. O‘sha kundan boshlab butun qishloq Muhayyo opani so‘radi: — U yozuvchi opa qachon qaytar ekan? Turshaklarni quritganlarini eslaysizmi?



Shunday qilib, mehr bilan quritilgan turshak Muhayyo opa xotirasining bir bo‘lagi bo‘lib qoldi, kichkina bir qishloqda esa bu voqea uzoq vaqt esda qoladi.

Jasmina ISMOILJONOVA,
Bekobod tumani 2-umumta’lim maktabi o‘quvchisi

Dolzarb mavzu

AYRIM O‘ZBEKLAR QACHON O‘ZBEKCHA GAPIRISHADI? O‘ZBEKCHA ISM VA SO‘ZLAR QACHON TO‘G‘RI YOZILADI?

1989-yil 21-oktyabrda birinchi prezidentimiz Islom Karimov tilimizga Davlat tili maqomini bergan edilar. U yillarda hali mustaqillikka erishmagan edik. Lekin davlatimiz rahbari mas’uliyatni his qilib, millat taqdiri va kelajagi uchun qayg‘urib shu qonunni qabul qilgan edilar. Alisher Navoiy bobomiz ham salkam VI asr avval tilimizning sofligi, mavqeyi va kelajagi uchun qayg‘urib o‘zining buyuk asarlarini turkiycha, ya’ni o‘zbek tilida yozgan edilar. O‘tgan asr boshida jadid bobolarimiz ham yurtimizning mustaqilligi va tilimiz sofligi uchun qattiq kurashganlar.

Tarixga nazar tashlasak, yurtimiz ashtarxoniylar sulolasi davrida boshboshdoqliklar sababli uch xonlikka bo‘linib ketgan edi. Uch xonlik esa bir-biri bilan murosa qilolmagani bois Rossiya mustamlakasiga aylanib qolgan. Aslida avvalgi sulolalar: somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, xorazmshohlar, temuriylar va shayboniylar dunyoning katta qismini boshqarishgan, jahongirlik qilishgan. Birinchi va ikkinchi Renessanslar ham shu davrda amalga oshgan. Ayniqsa, ikki yarim, uch ming yillar oldin Turk xoqonlari Sibirdan turib dunyoni boshqarishgan deyiladi, O‘zbekiston gerbining izohi va ilovasida. Chunki Turk xoqonining tamg‘asi bosilgan barcha hujjatlar, tamg‘asi bor elchilar va karvonlar dunyoning barcha nuqtasiga daxlsiz yetib borgan.

Rus bosqinchilarining yurtimiz Turkistonga kelganiga bir yarim asrdan oshdi. Xalqimiz bu davrda qancha tuhmatlar, aldovlar va qatag‘onlarni boshidan kechirdi. 1991-yil Mustaqillik ne’mati nasib etdi, bunga ham 35 yil bo‘ldi. Lekin hanuz u yillarning dillarda soyasi qolgan.

Abdulla Oripov shunday yozadi:

U zamon o‘tib ketdi,
Degaymiz sho‘ri qursin,
Insonni tahqir etgan
Zo‘ravon, soxta g‘oya.

Qolgan-qutgani bo‘lsa,
Xudoning o‘zi ursin.
Lekin ba’zan ruhimga
Qo‘rquvi solar soya.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2025-yil 20-avgust 169-sonida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Ma’suma Obidjonovaning yangi atamalar va ularni tezroq ommalashtirish mavzusidagi maqolasi e’lon qilingan. Maqolada tilimizning sofligini saqlash va mavqeyini ko‘tarish masalasi olib chiqilgan. Vazirlar Mahkamasining atamalar komissiyasi qarori bilan tilimizga qirqta yangi so‘z kiritilganining tarixiy voqea ekanligi aytilgan. Masalan, *brizgovik – loyto‘sgich, otvertka – buragich, shurup – buramamix, kolovorot – qo‘lparma, dostavka – yetkazish, selfi – o‘z surat, layk – ma’qul yoki yoqdi, lider – yo‘lboshchi, chellenj – chorlov, lokatsiya – manzil, vnedorojnik – yo‘l tanlamas, master-klass – mahorat darsi, qo‘shiq xit bo‘ldi – mashhur bo‘ldi* so‘zlari tilimizning o‘zida mavjud so‘z yasash usullaridan foydalangan holatda iste’molga kiritilsa, xalq tiliga singib ketish ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi, deyiladi maqolada. O‘z texnologiyasiga o‘z tilida nom bera olgan, o‘z qonunlarini to‘liq o‘z so‘zlarida yoza olgan, avlodlariga o‘z tilida bilim bera olgan millatgina jahonda munosib o‘rniga ega bo‘ladi, deydi muallif.

Xalqimizning ruscha so‘zlardan tez voz kechol-maganining sabablaridan biri aholining o‘tgan asr boshlarida sun’iy zo‘ravonlik va aldov yo‘li bilan ruslashtirilishidir. Chunki hamma yozuv hujjatlari rus tilida talab qilindi, maktablarda bir kun rus tili kuni sifatida belgilandi, rus tili o‘qituvchilarining maoshiga katta ustama haqi qo‘shib to‘landi, rus tilini bilganlar hayotda ilg‘or va madaniyatli sanaldi, rusga uylanganlar amaldor bo‘lib ketishdi, hatto davlat rahbarlarining o‘rinbosarlari ommaviy ravishda rus millati vakillaridan tayinlandi. Rusga uylanganlar va ayrim o‘zbek oilalari farzandlariga shu tilda ism qo‘yishib, rus bog‘chalarida tarbiyalashdi, rus maktabida o‘qitib, shu millat mafkurasida ulg‘aytirishdi. Bunday muhitda o‘sgan yosh, navqiron farzandlar kelajagini faqat Rossiya bilan bog‘lab, o‘zbekcha gapirishga va o‘zbekona hayotga bepisand qarashdi.

Bugun yurtimizda milliy tilimiz taqdiri haqida jiddiy qayg‘uradigan vaqt allaqachon kelgan, hatto o‘tib ham bormoqda. Afsuski, odamlarning kundalik og‘zaki nutqida hanuz ruscha so‘zlarni aralashtirib gapirish holatlari uchramoqda. Oilada, bog‘chalarda, maktablarda, oliy ta’lim muassasalarida hamda barcha davlat tashkilotlarida o‘zbek adabiy tilida yozish, ish yuritish va adabiy tilda so‘zlashishni qat’iy yo‘lga qo‘yish zarur.

Yaqinda Toshkent shahrini ekologik toza muhitga aylantirish va ob-havosini yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan qaror qabul qilindi. Ushbu qarordan ruhlanib, uni amalga oshirishga barcha mas’ullar safarbar etildi va bugun bu yo‘nalishda kecha-yu kunduz ish olib borilmoqda. Ijobiy natijalar ham ko‘zga tashlanmoqda. Til masalasida ham ana shunday qat’iy va aniq choralar ko‘rilishi lozim, albatta.

Chunki tilimizdagi ayrim buzilishlar kishini ranjitadi, hatto g‘ashini keltiradi. Masalan, ba’zi ism-shariflar o‘zbek tili qoidalariga zid tarzda yozilgan: Atayev, Adilov, Atakulov, Aripov, Abid Djo‘ra, G‘iyos Agzamov va boshqalar. Bunday xatolarni to‘g‘rilash esa murakkab jarayonga aylangan. Pasport beruvchi organlar ularni mustaqil ravishda o‘zgartirish huquqiga ega emas. O‘tgan asrda til qoidalarini yetarlicha bilmagan shaxslar ism-shariflarni qanday eshitsa, shunday yozib yuborgan. Natijada imloviy xatolar hujjatlarda mustahkamlanib qolgan. Ularni tuzatish uchun sud qarori yoki tegishli normativ-huquqiy hujjat talab etiladi.



Sportchilar nutqida “jang qildim” o‘rniga “boy o‘tkazdim”, “g‘alaba qozondim” o‘rniga “pobeda qildim”, “murabbiy” o‘rniga “trener”, “hakam” o‘rniga “sudya” kabi so‘zlarni ishlatish hollari tez-tez uchramoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasida “dala” o‘rniga “polya”, ta’lim tizimida “imtihon” o‘rniga “ekzamen”, “baholash” o‘rniga “otsenka qo‘ydim”, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida esa “chegirma” o‘rniga “skidka”, “buyurtma” o‘rniga “zakaz”, “to‘lov” o‘rniga “oplata” kabi so‘zlar keng qo‘llanadi. Kundalik turmushda ham “majlis” o‘rniga “sobraniye”, “hisobot” o‘rniga “otchyot”, “buyruq” o‘rniga “prikaz”, “ta’til” o‘rniga “otpusk” deyish odat tusiga kirgan.

Bu kabi holatlar nafaqat nutq madaniyatiga putur yetkazadi, balki adabiy til me’yorlarining asta-sekin zaiflashishiga ham sabab bo‘ladi. Holbuki, ushbu tushunchalarning barchasi o‘zbek tilida muqobili mavjud bo‘lgan so‘zlardir.

Bu kabi holatlarni sanayversak, ular tugamaydi. Shu bois, yuqoridagilardan butun omma, ayniqsa, yoshlar xabardor bo‘lishi zarur. Faqat shunda ularning ongi, fikri, dunyoqarashi va mafkurasi o‘zgaradi. Shundan keyin xalqimiz tilimizning sofligi, uning obro‘si va mavqeyi uchun ongli ravishda kurashadi, jon kuydiradi.

Televideniyeda vaqti-vaqti bilan “Dilim og‘riydi” didaktik ko‘rsatuvi efirga uzatiladi. Ziyoli kishi jamoat transportida odamlarning tilini kuzatib, shu xulosaga keladi: kundalik turmushdagi oddiy so‘zlarimiz o‘rniga ruscha so‘zlarning keng qo‘llanilishiga xalq aybdor emas, shunchaki ularni 70 yil davomida shu ruhda tarbiyalashgan.

Demak, tilimiz mavqeyi uchun kurashish bir-ikki kishining emas, butun millatning, xalqning va davlatning birgalikdagi vazifasidir. Zero, Abdulla Oripov so‘zlari bilan aytganda:

Bu vatan menikidir,
Bu til mening tilimdir.
Bu el mening elimdir,
Muhabbati hammaniki.

Mirzaqul BERDIQULOV,
“Oqtepa” MFY nuroniysi, 78 yosh

QO‘SHNING TINCH – SEN TINCH

Deputat minbari

Inson hayotidagi eng muhim ne’matlardan biri tinchlikdir. U faqat butun yurt miqyosida emas, balki inson yashayotgan eng kichik hudud — qo‘shnichilikdan boshlanadi. Qo‘shnichilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy va muhim ijtimoiy munosabatlardan biridir. U shunchaki yonma-yon yashashni emas, balki o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, yordam va birdamlik tamoyillariga asoslangan hayot tarzini anglatadi.

Har bir jamiyatning ma’naviy darajasi, avvalo, undagi qo‘shnichilik munosabatlari bilan belgilanadi. Xalqimiz bejizga: “Qo‘shning tinch – sen tinch”, demagan. Bu hikmatli so‘z asrlar davomida shakllangan hayotiy tajriba va donishmandlik mahsulidir. Qo‘shnichilik – tinchlik va barqarorlikning garovi. Bir-birini tushunadigan va hurmat qiladigan qo‘shnilar yashaydigan muhitda nizolar kam bo‘ladi, ijtimoiy muammolar esa osonroq hal etiladi. Ayniqsa, favqulodda yoki og‘ir vaziyatlarda yaqin qo‘shnining yordami bebaho ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv davrida, afsuski, ayrim mahallalarda qo‘shnichilik munosabatlarining sovuqlashib borayotgani sezilmoqda. Texnologiyalar rivoji va shaxsiy manfaatlarning ustuvor qo‘yilishi ba’zan insonlar o‘rtasidagi samimiy aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, haqiqiy insoniy qadriyatlar, jumladan,



qo‘shnichilikning ahamiyati hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Bekobod tumani “Mustaqillik” mahallasida yashovchi uch qo‘shni — O‘ringul ona, To‘tixon ona va Karomatxon onalarning qo‘shnichiligi butun mahallaga ibrat bo‘la oladigan samimiy rishtadir. Hozirda uchalalari ham 80 yoshni qoralab qolgan. Ular nevara-chevaralari ardog‘idagi suyukli buvijonlar bo‘lib, ko‘p yillardan buyon qo‘ni-qo‘shnichilikda ahil va totuv yashab kelishmoqda.

— Oiladagi tinchlik va xotirjamlik, avvalo, qo‘shning bilan ahil bo‘lishingga bog‘liq. Shunday vaqtlar bo‘lganki, qo‘shnilar bilan bir burda nonni baham ko‘rib yeganmiz. Uch dugona (hozir ham bir-birlarini shunday atashadi) bo‘sh vaqtlarimizda birga ko‘ksomsalar yopar, urchuq yigirar, gilam to‘qirdik. O‘sha kunlarni eslasak, quvonchli damlarda ham, qayg‘uli onlarda ham birga bo‘lganimiz yodimizga tushadi, — deya eslashadi ular.

Bugungi kunda ham farzandlar ushbu qo‘shnichilik an’anasini davom ettirib kelmoqda. O‘zbek jamiyatida qo‘shnichilik shunchaki hududiy yaqinlik emas, balki ma’naviy rishtadir. Qo‘shnidan hol so‘rash, yordamga shoshilish, bir burda nonni bo‘lishish — xalqimizga xos oliyjanob fazilatlardir.

Xulosa qilib aytganda, “Qo‘shning tinch – sen tinch” degan hikmat har birimiz uchun hayotiy qoida bo‘lishi zarur. Har bir inson qo‘shnisi tinchligini o‘ylasa, o‘z tinchligini ham asragan bo‘ladi. Zero, katta tinchlik kichik muhitlardan — xonadon va qo‘shnichilikdan boshlanadi. Qo‘shnichilik nafaqat shaxsiy munosabat, balki jamiyatning ma’naviy poydevoridir. Uni asrash va rivojlantirish esa kelajak avlod oldidagi muhim ma’naviy burchimizdir.

Zarifa ESIRGAPOVA,
Xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi deputati



Umid ramzi

BIR ASAR TARIXI

Men uchun kutilmagan yangilik hamisha Sharqdan keladi.
Anri MATISS

O‘zbek fotografiyasi tarixida ko‘plab mashhur fotograflar o‘zlaridan boy ma’naviy meros qoldirganki, hozirgacha san’atimiz xazinasini nurga to‘ldirib turadi. Ana shunday o‘z davrining fidoyi ijodkorlaridan biri Maks Pensondir (1893-1959). Bu ajoyib iste’dod egasi belorus zaminida tug‘ilgan bo‘lib, Birinchi jahon urushi talofatlari sabab, taqdir taqozasi bilan saxovatli o‘zbek diyoridan qo‘nim topadi. O‘z yurtida rassomchilik maktabida tahsil olganligi, bu yerda unga “ish” beradi. Dastlab Qo‘qondagi mahalliy maktablardan birida rasm chizishdan ilmga tashna bolalarga saboq beradi. Shundanmi, keyinchalik mahalliy odamlar unga “usta Penson” deya murojaat qila boshlashadi. Bundan ruhlangan yosh, harakatchan Penson rang tasvirda o‘ziga ilhom bergan turli janrlarda suratlar chizib, tomoshabinlarning e’tiborini qozonadi. O‘z ustida muntazam ijodiy izlanishlar olib borishi sabab kutilmagan natijalarni qo‘lga kirita boshlaydi. Nafis san’at olamidagi go‘zalliklar uning hayrat to‘la qalbini borgan sayin o‘ziga rom etib boradi. Gap shundaki, u fotografiyaga qiziqishi tufayli FED rusumli fotokamera sotib oladi. Natijada, fotograf sifatida o‘sha davr qishloq odamlari, paxta dalalari, qo‘qonning eski, tor ko‘chalarini tasvirga tushira boshlaydi. Mehr bilan qilingan harakat o‘z mevasini beradi.

M.Penson olgan fotosuratlar keyinchalik gazeta sahifalarida bosilib chiqa boshlaydi. Nihoyat, qahramonimiz 1933-yilda “Правда Востока” gazetasining fotomuxbiri sifatida mustaqil ijodiy faoliyatini boshlaydi. Shu kundan uning fotografiya sohasidagi “yurishi” boshlanadi. U gazeta topshirig‘i bilan respublikamizning turli hududlarida qizg‘in ijodiy ish bilan band bo‘ladi. U asosiy e’tiborni davr qahramonlarining yangi hayotga intilishlariga qaratadi, qishloqdagi olamshumul voqea-hodisalarni tasvirga oladi va tarixga muhrlaydi. Muhimi, Penson har bir fotolavhasida real voqelikka qanchalik ijodiy yondoshib chuqur kirib borilsa, asardan olinadigan taassurot shunchalik zavqli bo‘lishini chin dildan his etadi. Bunda syujet bilan kompozitsiya uyg‘unligiga erishish maqsadida, birinchilardan bo‘lib, hayot haqiqatlarini badiiy ifodalashda o‘zbek fotografiyasiga san’at ruhini olib kiradi. Shu bois ham, o‘sha paytdagi “Советское фото” jurnali uning yurtimiz hayoti aks etgan suratlarini “bu shunchaki, fotoreportaj emas, balki rassom bo‘yoqda chizgan kartinaga o‘xshaydi”, deya uning ijodiga yuqori baho beradi. Bunga javoban muallif mahoratini tinmay oshirib borib, hayotni obrazlar orqali fotografik uslubda badiiy aks ettirishda fidoyilik ko‘rsatadi. U ko‘prok hayot qaynagan joyda bo‘lar, ayniqsa, qishloqdagi madaniy, ijtimoiy o‘zgarishlarni kuzatib, eng dolzarb obyektlarni tezkorlik bilan muhrlab, gazetxonlar e’tiboriga havola etardi. O‘zbek fotografiyasining oltin fondidan joy olgan afsonaviy katta Farg‘ona kanali qurilishidan hikoya qiluvchi fotoocherk, reportajlar turkumi o‘tmishni jonlantiruvchi tarixiy noyob fotohujjat sifatida qadrlidir. Maks Penson “fotoasarlarim meni doim hayratga soladi. Har bir asarim umid ramzi sifatida dunyoga keladi” deganda, yuz karra haq edi. Ijodkor “umid ramzi” bo‘lgan asarlari bilan o‘ziligiga intilib, nurli manzillar sari oshiqadi.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, dunyo badiyat olamidagi eng mashhur rassomlar Rafael, Leonarda da Vinchi, Miklanjelolar o‘z zamonasida xotin-qizlar mavzusiga ko‘p va xo‘p murojaat qilishganki, to hozirgi kunga qadar dunyo e’tirof etib keladi. Jumladan, “Madonna sa’va”, “Monna Liza” kabi go‘zal asarlardan taralayotgan turfa ranglar ohangi qalbingizni asir etadi. Gap shundaki, adabiyot tarixida mashhur yozuvchi G.Markesning “Tanholikning yuz yili” romanining hayotbaxsh ta’siri taqlidida, jahon adabiyotida o‘nlab ana shunday g‘oyaviy asarlar dunyoga kelganligini yaxshi bilamiz. Qolaversa, ijodkorning dunyoqarashi hayot oqimi bilan birga o‘sib, o‘zgarib, shakllanib boradi. Uning dunyoqarashi qanchalik shakllangan bo‘lsa, badiiy asarlari ham g‘oyaviy jihatdan shu qadar tiniq va ravshan bo‘ladi. Tinib-tinchimas bizning qahramonimiz ham buyuk rassomlarga ergashib, fotografiyada shunday mavzuga dadil qo‘l urgan. Bu harakati bilan u go‘zallik qonuniyatiga rioya qiluvchi san’at hech qanday sxematik qolipni tan olmasligini isbotlaydi.



Aslida har bir ijodkor qalbida kechgan eng yaxshi asarini yaratishi bilan o‘zligini topishga intiladi. Bu intilish ishtiyoqi uni o‘z asariga qahramon izlashga undaydi. E’tibor bersangiz, klassik rassomlarning jozibador madonnalari chizilgan kartinalarda murg‘ak bolakay bilan birga tasvirlanganini ko‘ramiz. Penson ham butun diqqatini ana shu nozik g‘oyaga qaratadi va shu yo‘nalishda bolali onalarning o‘n-yuzlab kadr suratlarini tasvirga tushirib, sinovdan o‘tkazadi. Biroq, bu harakatlar dastlab kutilgan natijani, “O‘zbek madonnasi”ni yaratish istagidagi fotoijodkorga esa tinchlik bermasdi. Muhrlangan suratlarda “nimadir” yetishmasdi. Va nihoyat tinimsiz izlanishlar, tajribalar 1934-yili o‘z samarasini beradi. U olis qishloqlardan birida ijodiy safarda, qalbida orzu qilib yurgan o‘z qahramonini topadi. Dastlab yosh onaning o‘zini, so‘ng esa qo‘lidagi bolasini emizib turgan holatini ketma-ket tasvirga tushiradi. Tayyor bo‘lgan fotoetyud avval o‘zi ishlayotgan gazeta “Правда Востока”da, so‘ng ittifoq davridagi mashhur “Огонёк” jurnalida chop etiladi. O‘sha paytda bunday suratni matbuotda bosilib chiqishi sensatsiya, shov-shuvga sabab bo‘ladi. Buni qarangki, noan’anaviy qilib olingan oq-qora rangdagi bu surat 1938-yilda Parijda o‘tkazilgan Xalqaro fototanlovning oliy Gran-pri mukofotiga sazovor bo‘ladi. Hay’at a’zolari fotoetyudga “O‘zbek madonnasi”, deb nom berishadi.

Xo‘sh, klassiklar asarlarining mazmun-mohiyatini takrorlagan “O‘zbek madonnasi” nimasi bilan xorijlik tomoshbinlarni o‘ziga mahliyo qilgan edi? Bilamizki, chinakam san’at asari butun ko‘rinishi bilan milliylikdan darak berib turishi lozim. Bu san’atning bevosita zarur sharti hamdir. Demak, har qanday asarda milliylik qanchalik aniq va chuqur tasvirlansa, badiiy jihatdan shu qadar yetuk bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, milliy kolorit qanchalik yorqin ifodalansa, unda umuminsoniy tuyg‘ular shunchalik baralla yangrab turadi. Yana buyuk rassom Pol Sezan aytadi: “Qalbni chizib bo‘lmaydi. Agar vujud mahorat bilan tasvirlansa, u holda qalb quyosh misoli nur sochadi, asarga hayot bag‘ishlaydi.”

Xuddi shunday, ichki kechinma taassurotni nur va soya chizgisi mahsuli “O‘zbek madonnasi”da ko‘ramiz. Uni zimdan tomosha qilib, beixtiyor maftun bo‘lasiz, hayratga tushasiz. Chunki, insonning sof botiniy go‘zalligi ufurib turadi va Ona obrazi har qanday kishini fikrlashga undaydi. Buyuklik – oddiylikda. Oddiygina ko‘ringan suratdagi ona-bola qiyofasida qahramonning qalb quvonchlari, ko‘tarinki ruhiy kayfiyati butun bir hayot ma’no-mazmunidan hikoya qiladi. Boshiga iroqi do‘ppi kiygan, samimiy chehrasidan nur yog‘ilib turgan, egnidagi atlas libosi o‘ziga yarashgan, qo‘lida bolasini entikib emizayotgan, farzandiga mehr va nim tabassum-la boqib turgan Ona timsolida insondagi butun go‘zallik ona mehridanligini ko‘ramiz. Ijodkor asosiy urug‘ini Sharq ayollariga xos bo‘lgan tom ma’nodagi o‘zbekona iffat, ibo, cheksiz onalik mehrini bolasiga ulashayotgan hayot davomiyligiga qaratadi. Shunda, go‘zallik – yosh bolaning beg‘ubor ko‘zlariga boqib turgan mehribon Ona shunday chiroyli bolani ato etgani uchun Yaratganga hamd-u sano, shukrona aytayotgandek tuyuladi.

Portret janridagi yirik planda ishlangan fotoetyudning o‘ziga xosligi shundaki, odamlarni hayotni sevishga, baxtiyor Onalik onlarini yuksak pardalarda kuylashga chorlab turadi. Shuningdek, fotograf serma’no syujetida obrazning ham tashqi, ham ichki dunyosini, yuzidan onalik mehri jo‘sh urib turganligini texnik jihatdan a’lo darajada bajargan. Qolaversa, rangtasvirda ranglar jarangdorligi ustunlik qilsa, bu fotosuratda esa real hayotiy jozibaning mo‘lligi, ko‘pligi katta ahamiyat kasb etgan.

Ha, Ona naqadar ulug‘ inson. Onaning bolaga bo‘lgan mehrini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Zero, bu yorug‘ dunyodan shoir Muhammad Yusuf aytgandek, “O‘tar inson yaxshi-yomoni, mehr qolur, muhabbat qolur”…

Sultonboy DEHQONOV,
O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a’zosi

Kichkintoylar kutubxonasi

QISHNING BIR KUNI HAM QISH

Bir bog‘bonning katta bog‘i bo‘lib, unda turli xil mevali daraxtlari bor ekan. Bog‘bon qishin-yozin bog‘da tinmay mehnat qilarkan. Bahor kelishi bilan daraxtlarning tagini yumshatar, shoxlarini butab chiroyli shakl berarkan. Mevalari pishgach, ularni bozorda sotib ro‘zg‘orining kam-u ko‘stini qilarkan. Bog‘dagi daraxtlar bog‘bonni judayam yaxshi ko‘rishganidan, yildan yilga ko‘proq meva berishga harakat qilisharkan.

Qishning ikki oyi o‘tsa hamki, qor yog‘mabdi. Bundan bog‘bon xavotirga tushibdi. Axir daraxtlar sovuq tushib, qor yog‘sa, uyquga ketib, bahorgacha hosil uchun tanasida kuch yig‘ishadi. Agar daraxtlar yaxshi dam olmasa, yozda tanasiga qurt tushib, hosili nobut bo‘larkan.

Fevralning boshida birdan kunlar ilib, bahor nafasi yaqinlasha boshlabdi. Bog‘ning chetidagi kichkinagina bodom daraxtining tanasi iliqlikni sezib, sekin ko‘z ochib, u yoq, bu yoqqa qarabdi. Yoqimli, iliq shabboda tanasiga xush yoqibdi. Bahor nafasini tuygan bodom quloch yoza boshlabdi. Ikki-uch kun o‘tib tanasidan mitti kurtakchalar bo‘rtib chiqibdi. Buni ko‘rgan bog‘bon sarosimaga tushibdi. Axir hali qish fasli bo‘lsa, havoga ishonib bo‘lmaydi. Bir kunda havo sovub ketishi mumkin. Bodomning kurtaklarini sovuq ursa, u meva tuga olmaydi.

Bog‘bonning qayg‘uli nigohini ko‘rgan olma daraxti bodomga:

- Hali qish tugamadi, sen buncha erta uyg‘onib olding? – debdi.

Yosh bodom esa o‘zining tanasiga mahliyo bo‘lgancha:

- Hecham erta uyg‘onganim yo‘q. Bilsangiz meni bahorning ilk elchisi deyishadi. Shuning uchun boshqa daraxtlardan ertaroq uyg‘onishim kerak, – deya maqtanibdi.

Nariroqdagi keksa yong‘oq daraxti ularning suhbatini eshitib, bodomga nasihat qilmoqchi bo‘libdi.

- To‘g‘ri aytasan, bodomjon. Sen bahorning ilk elchisi bo‘lasan. Erta turish yaxshi, lekin qish tugamay uyg‘onganing yaxshimas-da. Qor yog‘ib qolsa, chiroyli gullaring sovuqqa chiday olmay to‘kilib ketadi. Biz shundan xavotirdamiz.

Bodom esa keksa yong‘oqning nasihatiga ham quloq solmabdi.

- Siz ancha qarib qoldingiz yong‘oq bobo. Buning ustiga yildan yilga uyquchi bo‘lib borayapsiz. Uyquchiligingiz sabab, mevangiz ham kech pishadi. Xo‘jayinimiz sizni terib olishga ulgurmaydi. Qish kelib qoladi. Natijada qushlarga yem bo‘lasiz.

Bodomning gapidan keksa yong‘oq daraxti qattiq xafa bo‘libdi. Bodom esa oppoq gullarini atrofidagi daraxtlarga ko‘z-ko‘z qilgancha, butun boqqa o‘z iforini tarataveribdi. Kunlardan bir kun tunda bodomning tanasi junjika boshlabdi. Ertalab osmonni qop-qora bulut qoplab, iliq shabada izg‘iringa aylanibdi. Shamol bodomning chiroyli ammo hali uning tanasiga mustahkam joylashib olmagan gullarini tortqilay boshlabdi. Bodom gullarini mahkamroq quchay desa, shoxlari sovuqqa dosh bermabdi. Shunda u bulutlarga qarab yolvoribdi.

- Bulutjon quyosh yuzini to‘smagin. Axir gullarim sovuqqa chidamaydi.



Biroq shamol qattiq esayotgani sabab bulutlar bodomning iltijosini eshitmabdi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay qor yog‘ibdi. Bog‘, dalalar oppoq qorga burkanibdi. Bechora bodom gullarini o‘ylab tuni bilan uxlay olmabdi. Yonidagi daraxtlardan yordam so‘rab yolvoribdi, ammo daraxtlar uyquda bo‘lgani uchun bodomning gaplarini eshitmabdilar. Daraxtning butun tanasi sovuqdan titray-titray, oxiri hech nimani sezmay qolibdi.

Oradan kunlar o‘tib qorlar eribdi. Bog‘ qushlar chug‘uriga ko‘milibdi. Bahorning elchisi boychechak yerdan bosh ko‘taribdi. Bodom bahor kelganidan xursand bo‘lib, endi quloch yoymoqchi bo‘lgan ekan, tanasidagi barcha gullari to‘kilib ketibdi. Bodom yer yuziga to‘kilgan gullariga qarab yum-yum yig‘labdi. Uning ahvoliga keksa yong‘oq daraxti achinib ko‘nglini ko‘taribdi.

- Hechqisi yo‘q, hali judayam yoshsan. Kelasi yil, albatta, mevalaring bilan bog‘bon bobomiz dasturxonining to‘risidan joy egallaysan.

Bodom olma va yong‘oq daraxtining gapiga quloq solmagani uchun rosa pushaymon yebdi. Qishning bir kuni ham qish ekanligiga amin bo‘libdi.

Muhayyo O‘ROQOVA.

ILHOM CHASHMASI

O‘ZBEKISTONIM MENING

Minglab shoirlaring bitar qasida,
Ming bora jang-jadal ichra qulading.
Bahodirlar tortgan har na’rasida,
Ozod Vatan uchun hurlik tilading.
Alpomish, Go‘ro‘g‘li dostonim mening,
To‘maris shonidir osmonim mening!

Beruniy, Xorazmiy, Buxoriy ilmi,
Asrlar qa’ridan olamga mayoq.
Ulug‘bek jadvali…Sino bilimi…
Dunyolar tan olgan – moziyga bir boq.
Alisher g‘azali so‘zonim mening,
She’riyat mulkida sultonim mening.


Ma’rifat yo‘lini yoritdi Cho‘lpon,
Davrning zulmiga boshin egmadi.
Qodiriy, Avloniy, otildi Usmon,
Oh, boshingga ne-ne toshlar tegmadi.
Yurtida bag‘ri qon vayronim mening,
Erksevar, toza qalb iymonim mening!

G‘ururidan faxr tuygan davronim,
Asrlar elagan mangu makonsan.
Sharqqa mash’al bo‘lgan jasur o‘g‘lonim,
Ozodlik yo‘lida ko‘ksi qalqonsan.
Shiroqdek sahroda sarsonim mening,
Manguberdi kabi o‘g‘lonim mening.

Nodira, Uvaysiy, to‘kdilar ko‘zyosh,
She’riyat gulshanin ko‘mdi armonlar…
Hur diyorim qizlari ko‘ksida quyosh,
Ozod yurt bermoqda minglab imkonlar.
Jahonda shu’la-yu, afshonim mening,
Ilm-urfon taratgan bo‘stonim mening.

Ona Vatan, muborak o‘ttiz to‘rt yoshing,
Qaynoq quchog‘ingda baxtga yo‘g‘rildim.
Har tongda balqisin nurli quyoshing,
Mudom men, ozod yurt senda tug‘ildim.
Jannat tuprog‘idir makonim mening,
O‘zbekiston – tengsiz jahonim mening!

Muyassar ARZIMATOVA



OTA

Nabiram tilidan

Ota sizni o‘ylasam,
Tor ko‘nglim tog‘ bo‘ladi.
“Ona qizim” onam deb,
Dillar ham chog‘ bo‘ladi.

Ota sizni o‘ylasam,
Og‘ushida oy boqar.
Tilimdan asal, bol tomib,
Dilimga ilhom yoqar.

Ota sizni o‘ylasam,
Yodimda ahvolingiz.
Shon ekan, sharaf ekan,
Davlat ekan boringiz.

Ota sizni o‘ylasam,
Kelar Jannat ifori.
Xotirim uyg‘otadi,
Har yilning bir bahori.

Esonali YODGOROV

BOLALIGIM

Bolaligim eslab, seni sog‘indim,
Chang ko‘chada chopib yurgan kezlarim.
Shamol bilan quvlashmachoq o‘ynagan,
Ko‘zi charos, olma, anor yuzlarim.

Adirlarda terib lolaqizg‘aldoq,
So‘qmoqlarni kezib yurdik shodona.
Ariqlarda olma oqar oqizoq,
Tashvish, hasrat bizga endi begona.

Tog‘ bag‘ri qishlog‘im jannatiy,
Bu edi shodligim, shalolaligim.
Shuncha ham tez o‘tib ketgan bu zamon,
Qaytmaysanmi yana, oh, bolaligim.

Mohichehra TOSHPO‘LATOVA

MINNATDORLIK O‘RNIDA

“Qishloq tadbirkorligini rivojlantirish” 2-faza” loyihasidagi ishtirokdan ilhomlanib

Chekka bir qishloqda oddiy ayolman,
Uy-ro‘zg‘or, tashvishlar ichra xayolman.
Yumushim erurdi qurut, qatig‘-u ayronlar,
Havas bilan qarardi mahallada ayollar.

Biznes reja tuzganman, islohotga javobim,
O‘qiganim sari oshdi moliyaviy savodim.
Smart mezonlar ila shakllangan maqsadim,
Grandni ham yutaman agar kelsa omadim.

Inpulsefni unutib, tejayman pullarimni
Passiv daromad tomon ochaman yo‘llarimni.
Yangi dasturlardan mamnun bo‘lib quvondim,
Treninglar tufayli men o‘zimga ishondim.

Ustozlarim sizlarga aytaman ming tashakkur,
Bilimimiz oshirib, berdingiz yangi fikr.
Doim bardam bo‘lingiz, hamisha sog‘-salomat,
Ishonchingiz oqlaymiz ko‘rsatib jasorat-u,
Qilib katta daromad.

Shahnoza XO‘JANOVA,
Bekobod tumani “Achamayli” MFY

ABDULLA ORIPOV SHE’RIGA NAZIRA

“Oqshom cho‘kar asta, boshlanadi tun”
Xayollar girdobi domiga tortar.
Qalbimiz izmida qolarmiz bugun,
Hijron azoblari yetib ham ortar.

Oldinda ko‘rinar oxirsiz bir yo‘l,
Go‘yo sinoatin boy bermas hayot.
Sahroda dengizni qidirgandek, go‘l
Inson bu dunyodan izlaydi najot.

Ey farzand, bo‘sh kelma, o‘rningdan bir tur,
Kurash, tirish-tirmash orzular sari.
Kelajakda kutar seni porloq nur,
Chin dildan istasang ushalar bari...

Hanifaxon SULTONAMIROVA

Hikoya

O‘N SAKKIZ YOSHING

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshingdadir,
Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadir.
Navoiy



O‘n sakkizga kirgan odamning ko‘ziga olam jilva qiladi. Kamalakning yetti rangidan yetmish ming rang yasaydi. Echkining yoqimsiz ma’rashi ham qulog‘iga bulbul navosi bo‘lib kiradi. Yulduzlarga qo‘li yetadi, tubsiz ummonlar tizzasidan keladi.

O‘n sakkizga kirmabsiz, dunyoga kelmabsiz!

Mana, o‘n sakkizga kirganlardan biri kattakon terak tagida xayolchan turibdi. U hali shu yoshga yetib og‘ziga ichkilik degan narsani olmagan. Ammo qip-qizil mast. Ovozi do‘rillaydi, husnbuzar toshgan yuzlarida bir chiroyli xayol izlari bor. Mana shu bolaning o‘n sakkizga kirganiga bugun roppa-rosa to‘rt oy bo‘ldi. Shu yoshga kirdi-yu, shunaqa xayolchan, bo‘lar-bo‘lmasga xo‘rsinadigan, kechasi oyga qarab o‘zicha she’r to‘qiydigan bo‘lib qoldi.

Keksalar! Siz ham shu yoshingizni eslang!

Qishda sarimsoq piyoz yegan odamning og‘zidan ko‘klam jalasi quyib o‘tgan terakzorning isi keladi. Siz ham bolaligingizni eslasangiz unutilgan muhabbat yana tug‘yonga keladi. Mana shu xo‘rsinib turgan, yuziga husnbuzar toshgan yigit sizsiz, shu sizning o‘n sakkiz yoshingiz.

Yigitcha xo‘rsinib turgan ko‘chaning bu betida baland imorat bor. Ikkinchi qavatning balkonida yaqinda o‘n sakkizga kirgan bir qiz kaftini iyagiga tirab o‘tiribdi. O‘zi uncha chiroyli emas, ammo o‘n sakkizga kirgan qizning xunugi bo‘lmaydi, buni bilasiz. Bechora qiz kelin ayasining pardoz qutisini titkilab yo‘lakda yuziga upa surayotganida akasi kelib qolib bir tarsaki yeganidan, yonidan bir juft kino bileti chiqib qolib gap topib berolmay dovdiraganidan uning necha yoshga kirganini bilib turgandirsiz. Bunaqa ish o‘n sakkizga kirgan qiz bolaning qo‘lidan keladi.

E, ayajonlar! Ko‘chadan kuyovnavkar o‘tsa qavib turgan ko‘rpangizni supada qoldirib devordan qaraydigan, buvijonlar, ha, nima, o‘n sakkizga kirmay hatlab o‘tib ketmagandirsiz. Kulmang, o‘zlaringiz ham xuddi shunaqa bo‘lgansiz. yig‘lagansiz, kulgansiz, xo‘rsingansiz, do‘rillagan ovoz eshitganingizda yuragingizda ot o‘ynagan.

Yo‘l o‘rtasida ezmalanib gaplashib kelayotgan ikki keksa o‘tib ketgandan keyin, yigit jadal yurib balkon tagiga keldi. Uning sharpasini sezgan qiz barmog‘ini lablari ustiga ko‘ndalang qo‘yib qoshlarini kerdi-da, chiroqni o‘chirib g‘oyib bo‘ldi. Zum o‘tmay, u yigit oldida paydo bo‘ldi. Hamma yoqni atir hidi tutib ketdi.

Ikkovi indashmay yo‘l yoqalab ketaverishdi. Anhor tomonga burilishayotganda qiz majnuntolning osilib yotgan novdasidan barglarni qisimida sidirib oldi-da, yigitning ustidan sochib yubordi. Yigit undan qasdini olmoqchi bo‘lib intilgan edi, qochdi. Ko‘prikka yetmay yigit uni tutib, bag‘riga bosib, o‘pib-o‘pib oldi. Qiz uning quchog‘idan yulqinib chiqib, katta xarsangga o‘tirib qoldi.

— Shunaqasan-da, Anvar,— dedi qiz undan o‘pkalagandek kulib.

Anvar unga yaqin kelishga yuragi dov bermay sal nariroqda hansirab turardi.

— Bo‘ldi, endi — dedi qiz jiddiy ohangda. —Endi nima qilamiz. Juda boshim qotdi-ku. Aytdim-ku, sen bilan mendan kinoartisti chiqmaydi, deb.

Anvar qo‘l siltadi.

— Ko‘risholmaydi, rejissyorining gapini qara, ilm kerak, deydi. Nima o‘ninchini bekorga bitirib qo‘yibmizmi? Rolni bersinu o‘ynaganimizni tomosha qilaversin. Mayli, kimligimni ularga ko‘rsatib qo‘yaman. Qurilishga boraman. Sen nima qilasan? Senga nima, sendan artist chiqadi. Sal kunda xizmat ko‘rsatgan artist Umida-xonim Boltayeva bo‘lib ketasan.

Umida sharaqlab kulib yubordi.

— E, omon bo‘l-e, bo‘lmadi. Arizamning ustiga bo‘lmaydi, degan rezolyutsiya qo‘yib qaytib berishdi. Xayr, alvido kino ekrani! To‘qimachilik kombinatiga ishga kiraman. O‘sha yerda havaskorlar to‘garagidan o‘sib chiqaman.

Ular goh kuyinib, goh kulishib ancha paytgacha anhor yoqalab aylanib yurishdi.

Anvar bilan Umida bir partada o‘n yil yonma-yon o‘tirib o‘qishdi. Shu o‘n yil ichida ozmuncha xayol surishmadi. Anvar kuniga bir kasb tanlardi, goh uchuvchi, goh mashhur artist, goh diplomat bo‘lib dunyo kezardi. Mana bugun hammasi chippaka chiqdi ketdi. Umida bo‘lsa qaysi jurnalda kinoartistlarning surati chiqsa qirqib olar, hind qizlariga o‘xshayman, deb ikki qoshining o‘rtasiga xol qo‘yib, kapron sharfga piston qadab kunora suratga tushardi. Uni ham kinoga olishmadi.

Beqaror, beqo‘nim yoshlik ularni ne ko‘ylarga solmadi.

Bu kecha ham ularning maslahati pishmadi. Ertaga yana shu yerda uchrashishga ahd qilib ajralishdi. Yana o‘sha ko‘cha betidagi balkonning chirog‘i yondi. Yana o‘sha xayolchan o‘tirish...

Anvar bo‘lsa mast odamdek kalovlab sanqib uyiga qaytdi. O‘rniga yotib ko‘zi ilinmadi. Umidaning yuzi ekranda kattakon bo‘lib ko‘rinaverdi, U go‘yo bu yoqqa kel, deb uni ekranga chaqirayotganga o‘xshayverdi. Oxiri xayoli tushga ulanib ketdi.

Ikkovi o‘ynagan rangli kino qo‘yilayotgan emish. Zalda o‘tirganlar bir ekrandagi Anvarga, bir zalda o‘tirgan Anvarga qarab qanday baxtli odam ekan-a, deyishayotgan emish. Kino tugagandan keyin ularning har ikkovini ham tomoshabinlar o‘rab olib chapak chalisharmish. Bir tomoshabin xuddi uning qulog‘i tagida juda ham qattiq chapak chalar emish. Anvar uyg‘onib ketib qarasa, u yotgan karavotning bosh tomoniga qo‘nib olgan xo‘roz qanot qoqib endi qichqiraman, deb turgan ekan.

Anvar tushni bo‘lgan xo‘rozning oyog‘idan ushlab uloqtirdi. Baribir xo‘roz ariq labida turib uni masxara qilgandek yana qichqirib yubordi.

To‘kilgan olmalarni terib yurgan ichkuyov pochchasi piching qildi:

— Yotaverasizmi, xalq artisti. Boshingizga oftob kelib qoldi-ku, ishlar nima bo‘ldi? Qabul qilishmaganga o‘xshaydi. Yaxshisi, yuring men bilan, ekspeditsiyaga olib ketay. Ikki yil mening partiyamda ishlab, keyin institutga kirasiz.

Anvar pochchasining ishini yomon ko‘rardi. Shu ham ish bo‘ldimi, cho‘l-u biyobonlarda tuproq kovlab, eski imoratlarning qoldig‘ini topish. Bu ishda qahramon bo‘lish qiyin. Bo‘lsa pochchasi bo‘lardi. Ming yil oldingi tangalarni, ko‘zachalarni topgan. Nimasi qiziq! Kosmonavt bo‘lsa boshqa gap. Bir marta osmonga chiqib orbitani aylansa bo‘ldi, yerga tushishi bilan “oltin yulduz” tayyor. Ammo kosmonavt bo‘lish uchun matematikani, fizikani yaxshi bilish kerak. Anvar har ikkalasidan ham zo‘rg‘a uchga ilingan. Undan tashqari, Anvarning bo‘yi uzun, novcha. Kabinaga sig‘maydi, siqqanda ham ikki bukilib o‘tirish kerak.

Bola bechora ming xil o‘ylar bilan tentib qurilish maydoniga kelib qolibdi. Hamma yoq chang, shovqin. Samosvallar u yoqdan-bu yoqqa vag‘illab o‘tib turibdi. Sharaqlatib shag‘al to‘kadi, qayerdadir qaldirab beton qoradigan mashina aylanadi. Birpasdayoq Anvarning boshi aylanib ketdi. Kimdir: “Qoch, e, bola”, dedi. Anvar o‘girilib qarasa, sement devorni xartumida ko‘tarayotgan bahaybat kranning tagiga kelib qolgan ekan. U chetga chiqib kran boshqarayotgan kishining harakatlarini kuzatib turdi. Kran xartumi devorni havolatib oborib uchinchi qavat tomining qirg‘og‘iga qo‘ndirdi. Devor qo‘ngan joyda elektr payvandlari chaqnadi. Anvar angrayganicha turib qoldi. Kranchi Anvarga qarab nimadir dedi. Anvar u nima deyotganini tushunmadi. U ikki barmog‘ini labiga qo‘yib nafasini ichiga tortib ko‘rsatdi-da, nimanidir unga irg‘itdi. Keyin u do‘ng orqasidagi avtolavkani ko‘rsatdi. Anvar u tashlagan narsani olib qarasa “Belomor”ning pachkasiga o‘rab tashlangan pul ekan. Anvar darrov tushundi-yu, papiros olgani do‘konga qarab chopdi. U qaytib kelganda kranchi yana bitta devorni qo‘ndirib bo‘lgan ekan. Anvar unga papirosni ko‘rsatgan edi, u bu yoqqa chiq, deb imladi. Anvar shoshib temir pillapoyalarga tarmashib chiqa boshladi.

Kran pastdan uncha baland ko‘rinmagan edi. U to kranchining oldiga chiqqunicha naq qora terga botib ketdi. Birdan muzdek shamol esib uning bahridilini ochib yubordi. Papirosni egasiga berib atrofga qaradi. Hamma yoq ko‘rinib turibdi. Shahar chetidagi imoratlar xuddi tuman orasidan ko‘rinayotganga o‘xshaydi. Hamma yoq imorat, imorat. Uzoqda ko‘m-ko‘k daraxtlar orqasidan Komsomol ko‘li oynadek bo‘lib yaltirab turibdi. Kranning qoq belida Anvarning shundoq takkinasida bir gala kaptar pildirab uchadi.

Kranchi papirosni o‘t oldirib bir-ikki marta to‘yib-to‘yib tortdi-da, Anvarga qaradi.

— Rahmat, akasi, zap ish qilding-da, juda xumor bo‘lib turgan edim.

Anvar unga ma’noli iljayib qo‘ydi.

— O‘qiysanmi, ishlaysanmi? — dedi kranchi pastga, xartum ilgagiga sement qorishmasi solingan temir tosni ilayotganlardan ko‘z uzmay.

— Ishlamayman ham, o‘qimayman ham. O‘qishni bitirdim, endi ishlamoqchiman.

— Menga shogird tushmaysanmi?—dedi u qorishmani to‘rtinchi qavati bitmagan bino tepasidan aylantirib o‘tib yangi poydevor qo‘yayotganlarning oldiga tushirarkan.

Anvar nima deyishni bilmay o‘ylanib qoldi.

— Yo kosmonavt bo‘lmoqchimisan? Hozir hamma yoshlar kosmonavt bo‘lishni mo‘ljallashyapti. Ke, sen bilan biz o‘sha kosmonavtlarga uy quraylik, nima deysan!

Anvar mundoq qarasa kranchilik ham g‘alati ishga o‘xshaydi. Birdan unda kranchi bo‘lish orzusi tug‘ildi. Yoshlik shunaqa bo‘ladi. To bir kasbning boshini tutguncha o‘zini u yoqdan-bu yoqqa uraveradi. O‘n sakkiz yosh ana shu beqarorlikning marrasi — oxiri bo‘ladi.

— Rost aytyapman, shogird tushsang, sal kunda kranchi qilib qo‘yaman. Mana shu kran ikkovimizniki bo‘ladi. Bilasanmi, bu kran bilan respublikani aylanib chiqqanman. Bu yog‘iga ikkovimiz ishlaymiz. Qarab tursam yaxshi bolaga o‘xshaysan. Xo‘sh, nima deysan?

Anvar “bo‘pti” deb yuborganini bilmay qoldi. Tamom! Anvarning bolaligi bitdi!

— Hali obedda kontoraga birga boramiz, o‘sha yerda ishni bitkazamiz. Hozir uyingga borib hujjatlaringni olib kel. Ana, endi menga xalaqit berma. Texnika xavfsizligining inspektori ko‘rib qolsa boshim baloga qoladi.

Anvar pildiraganicha pastga tushib ketdi.

Yana o‘sha anhor bo‘yi.

Yana o‘sha sichqon teshgan elakdek oy. Yudduzlar kuygan qozon tagidek jimir-jimir qilib turishibdi. Anhor shaloplab qirg‘oqqa sapchiydi. Oy aksini maydalab oqizib ketmoqchi, majnuntol novdalariga osilib bir dam to‘xtamoqchi bo‘ladi-yu, eplolmaydi. Xarsang tosh ustida oyog‘ini suvga botirib Umida o‘tiribdi. Anvar hovliqib-hovliqib gapiradi.

— Bilasanmi, bilasanmi, dunyoda kranchilikdek qoyil ish yo‘q. Shundoq tepasiga chiqib qarasang dunyoning narigi chekkasi ham ko‘rinadi. Men o‘sha yerdan turib sizlarning tomlaringizni ko‘rdim. Ko‘llar, bog‘lar, imoratlar... Bitta samolyot xuddi-xuddi oyog‘imning tagidan o‘tib ketdi.

Umida ko‘zlarini katta-katta ochib unga qarab turibdi. Choy qog‘ozini burdalab tashlagandek oy tangalari suv betida milt-milt oqadi. Katta ko‘prik ustidan o‘tayotgan mashina chiroqlarining aksi xuddi suvga bir sho‘ng‘ib olgandek narigi qirg‘oqqa yetmay so‘nadi.

Qiz yigitning gaplariga chidamay ketdi.

— Kombinatga borganmisan, o‘zing. Kombinatning qanaqaligini bilasanmi, o‘zing. Voy bo‘... Men tengi qiz bir yuz o‘n ikkita dastgohni yurityapti. Qirq ming odam ishlaydi. Kranni gapirasan-a. Kraning nima bo‘pti, bu dastgohlarning oldida. Kombinatda bir yilda chiqadigan matoni yer shariga o‘rasang yerning ochiq joyi qolmaydi. Kranlaring-u, jamiki qurilishlaringni o‘rab tashlaydi.

Anvar ham bo‘sh kelmadi. U kranchini maqtayverib oxiri gap topolmay qoldi. Ammo Umida kombinatda ko‘rganlarini gapirib tugatolmasdi.

Anvar mundoq qarasa, Umida labiga qizil surtganga o‘xshaydi. Tikilib ko‘rsa rost.

— Bu nima, yangi kalishning ichidek qip-qizil qilib.

Umida piq etib kulib yubordi. Uning bu kulgisida? Sen uchun, sen uchun tentak, degan ma’no barq urib turardi.

Shu kecha ularning xayoliga kinoartist bo‘lish degan gap kelmadi. Har ikkovi ham yangidan tanlagan kasblarini tildan qo‘ymasdilar.

O‘n sakkiz yosh shunaqa bo‘ladi. Go‘daklik xayollari yaratgan orzularini tumandek tarqatib, yangi orzular yaratadi. Yaratadi-yu, uni haqiqatga aylantiradi.

Ajab emas, endi bu ikki o‘smir kinoekranlarda artist bo‘lib emas, artistlar bular bo‘lib ko‘rinsa.

O‘n sakkizga kirmabsiz, dunyoga kelmabsiz!

Said AHMAD

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1800 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. "Mash'al" mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497